

KUZNING HAM GASHTI BOR

Kuzni bejizga «Oltin kuz» deyishmaydi. Sariq va olovrang tusli barglar tabiatga o'zgacha ko'rk bag'ishlagani uchun ham shunday ataladi bu fasl. Xazonrezgilik paytida to'kilgan barglar go'yo yo'laklarga to'shalgan gilamdek ko'rinadi. Tabiatda ajib bir sokinlik hukm suradi. Aynan shu sokinlik ba'zida ruhiyatimizga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab, ba'zilar bu faslni yoqtirmaydilar. Ammo kuzning ham o'z gashti bor. Yog'ayotgan mayin yomg'ir go'yo qalbimizda yig'ilib qolgan g'uborlarni yuvib ketayotgandek ko'nglimizda ajib bir hislarni uyg'otadi.

Hayotning faqat yaxshi taraflarini ko'rishga harakat qiling. Shundagina oltin kuzning go'zalliklarini to'laligicha his qila olasiz.

Hulkaroy AHADOVA,
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
qoshidagi Uchtepa akademik litseyi
o'quvchisi

SEVARA G'OLIB BO'LDI

Sevara Ortiqboyeva 4-«B» sinfning a'lochi o'quvchilaridan biri. Darsdan bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblar mutolaa qilish sevimli mashg'uloti. Danel Defoning «Robinson Kruzoning boshidan kechirganlari», «Podsho va Tutti», «Oqil tabib» kitoblarini qo'ldan qo'ymay o'qishining sababi ham ana shunda.

Chet el adiblari asarlari bilan bir qatorda u «O'zbek xalq ertaklari», «Shahzoda va Toychoq», «Afandi latifalari» nomli kitoblar bilan ham «do'st tutingan». Shu sababdan, Sevarani maktabimizning kitobxon o'quvchisi deb ayta olamiz.

Gulnoza EGAMQULOVA,
Zarbdor tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan
Davlat umumta'lim maktabi
kotibasi

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
31-OKTABR
N:44
(66845)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ONG YULDUZIM

«Tong yulduzi» – ong yulduzi,
U kelajakning yuzi.
«Tong yulduzi» – baxt yulduzi,
U bilimlar ildizi.

Bilib qo'ygin, tengdoshim,
U sening yaqin do'sting.
Sahifalarin o'qib,
Ma'nan barkamol o'sgin.

Guljahon TOSHPO'LATOVA,
Farg'ona viloyati, Farg'ona
tumanidagi 52-maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi

ZUKKO KITOBXON KIM?

4-bet

HAMMAMIZNING GAZETAMIZ!

Qadrlil bolalar!

Mamlakatimizda bolalar nashrlariga «Obuna – 2012» mavsumi boshlandi. Shu jumladan, «Tong yulduzi» gazetasiga ham 2012-yil uchun obuna bo'lishingiz mumkin. Gazetangizda kelgusi yilda ham yanada qiziqarli, rang-barang, mazmunli, dolzarb maqola va xabarlar, she'r, ertak va hikoyalar chop etiladi. U sizga eng yaqin do'st, maslahatchi vazifasini o'taydi.

«Obuna – 2012» mavsumini yuksak darajada o'tishini ta'minlab, «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» nashrlariga eng ko'p obunani uyushtirgan maktab, litsey, kollejlarga «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan quyidagi mukofotlar ajratildi:

1. Maktab, litsey va kollejlarga:
1-o'rin – 2 dona kompyuter;
2-o'rin – 3 dona televizor;
3-o'rin – 3 dona DVD pleyer.
2. «Obuna – 2012»ni tashkil etishda faol ishtirok etganlarga:
10 dona diktofon.

**Bu ezgu ishda
barchangizga
omad yor bo'lsin!**

Olovuddin O'RPOV olgan suratlar

USHBU SONDA:

ESKIRMAIDIGAN
TUYG'U

1-bet

TOSHKENTDA
«REAL» AKADEMIYASI

7-bet

SEPSANG, SEPAVERI

8-bet



Fransuz dorishunosi Parmante bu o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari haqida kitob yozdi, undan turli taomlar tayyorlab, o'z mamlakatida targ'ib etishga harakat qildi, ammo hadeganda uning omadi chopmadi. Dalasiga ekkach, miltiq tutgan qorovullar qo'yib, hosilni juda qattiq qo'riqlattirdi. Mahalliy dehqonlar: «Dalasiga oltin ko'mganmi?!» deya hayron bo'lishardi. «Avaylagan ko'zga cho'p tushadi». Bir kecha soqchilar uxlab qolgach, bor hosilni kovlab olib ketadilar va olovga tashlaydilar. Pishgan taomni tatib ko'rganlardan biri: «Hay-hay, «Yer olmasi»ni yemabsiz, dunyoga kelmabsiz», degan ekan. Dastlab, «Yer olmasi» nomini olgan shirin ta'm o'simlik bugungi kunda butun dunyoda sevib iste'mol qilinadi. Bu qaysi taom? Albatta, kartoshka!



Yo'q, ular ishlashmagan, ijod qilishgan. Shunaqasi ham bo'ladi?! Bo'ladi! 1690-yilga kelib, Parijda 380 dan ortiq qahvaxonalar mavjud bo'lgan. Buyuk fransuz adiblari Jan Jak Russo va Fransua Volter o'z asarlarining aksariyatini shu qahvaxonalarda yozishgan.

KUB TARVUZLAR



Kub tarvuzlarning ijodkori kim ekanini bilasizmi? Yaponiyalik seleksioner Ono Tomoyuki! Xo'sh, nega u bunday tarvuzlarni yetishtirgan? Chunki bunday tarvuzlarni uzoq joylarga tashish juda qulay. Juda mazali, shirinligiga gap yo'q!

SHAHNOZA tayyorladi

O'zbek tili va adabiyotini o'quvchilarga o'rgatishda jonkuyarlik ko'rsatayotgan, elimiz hurmatiga sazovor bo'layotgan ustozlar, ularning zukko shogirdlari haqida qator lavha, xabar, maqolalar berib boryapmiz.

ONADEK AZIZ

Poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 300-Davlat ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi Guliston Qo'ziyeva mana 18 yildirki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi bilan mashg'ul. Uning o'quvchilari bugungi kunda turli sohalarida samarali mehnat qilishmoqda.

Guliston opa hozirda 37 nafar o'quvchi tahsil olayotgan 2-«G» sinfga rahbarlik qilmoqda.

– Guliston Qo'ziyeva juda faol o'qituvchilarimizdan biri, – deydi boshlang'ich sinflar ilmiy mudirasi Marhabo Ziyovutdinova. –

«Ona tilim onadek aziz» mavzusida o'tkazgan badiiy kechasi o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Kichikintoylar davlat tili, uning jahonda tutgan o'rni, bu tilning nihoyatda boy va go'zal ekanligi



YUTUQLAR KALITI

Shahrimizning Hamza tumanidagi 198-maktabda ham O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan «Ona tilim – jon-u dilim» mavzusida tadbir o'tkazildi. Tadbirda taniqli yozuvchi va jurnalistlardan To'liqin Hayitov, Yusuf Xayrullayev ishtirok etishdi. Kechani maktab rahbari Nargiza Xolmuhammedova kirish so'zi bilan ochdi. So'ngra, 6-«A» sinf qizlari go'zal raqslar namoyish etishdi. Drama to'garagi rahbari Zuhra Abidova sahnalashtirgan «Zumrad va Qimmat» ertagi asosidagi sahna ko'rinishini 5-«A» sinf o'quvchilari qoyilmaqom qilib ijro etishdi. Tadbir boshlovchisi muallima Dilfuza To'xtaxo'jayeva so'z navbatini yozuvchi To'liqin Hayitovga berganida, zalda gulduros qarsaklar yangradi. U ona tilimizning

naqadar boy va buyukligi haqida gapirdi. Masalan, birgina «yuz» yoki «mahorat» so'zlarini bir necha ma'noda ishlatish mumkinligini, lekin bunday sinonimlar hamma millatda ham bo'lmasligiga alohida urg'u berdi. Buyuk siymolar, allomalarning shu darajaga erishishlarida kitobning o'rni beqiyosligini, rivojlangan davlatlarning ham shu darajaga kelishlarida kitobning o'rni cheksizligini alohida ta'kidladilar. Tadbir yakunida ko'p-o'qituvchi va o'quvchilarga, maktab kutubxonasi-ga yangi chiqqan kitoblardan hadya qildilar. Tadbirning qiziqarli, mazmunli o'tganini kitobiga dastxat qo'ydirayotgan o'quvchilarning yuz-ko'zlaridan ham bilsa bo'ladi.

Muzaffar AHMEDOV

SHE'R – MA'NAVY



Shoir Xushboq Rahim she'rlarini o'qigan kishi haqiqatan ham sababsiz she'r, oqibatsiz ishq bo'lmasligiga ishonch hosil qiladi.

yuqoridagilar emas, balki ularga dahldor uzluksiz harakat, yangilik va yaratuvchilik ishtirokchisiga aylangan po'latday pishiq fursatdir. Istalgan boylik vaqt birligida yaratiladi. Vaqt hayotda o'chmas iz qoldiradigan, tinim va sokinlik nimaligini bilmaydigan tabiiy qadriyatdir. Shoir ularning shakl-u shamoyilini «Meros» she'rida shunday chizadi:

Borliq og'ushida orosiz qalbm,
Ona yer aylanib otashlar solgan.
Uzluksiz harakat, betinim fursat,
Otamdan, onamdan men uchun qolgan.
Yer misol, yurt misol yugurar hamon,
Poygachi tulporday kelajak tomon.

Xalqimiz ko'p millatli. Ularning maqsad-muddaosi ham, ustuvor g'oyasi ham bitta. Hamyurtlarimiz Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mustahkam jipslashdi. Kim ketmoni, kim teshasi, kim qalami, kim kitobi bilan ishga kirishdi. Natija quvonarli. Xalqimizning g'ayrat-shijoati tufayli har bir oilada – xonadonda, maktab, mahalla, qishloq, shahar, butun O'zbekistonda yuksalish. Bunday o'zgarishlar kamida to'rt ming yillik tarixdan «so'zlagan» «Surxondaryo» dostonini yozishda shoir Xushboq Rahim uchun tayanch va qo'llanma bo'lgan. Darhaqiqat, uning she'rlarini o'qigan kitobxon

KO'Z QAROG'IMDASAN, VATAN!

Sevimli shoirimiz Sirojiddin Sayyidning ushbu satrlari yangraganda, faollar zalini gulduros qarsaklar tutib ketdi. Poytaxtdagi 106-maktabda bo'lib o'tgan «Ko'z qarog'imdasan, Vatan!» deb nomlangan tadbirni 6-sinf o'quvchilari Muxlisa Muhsimova hamda Madina Alimatova ochib berishdi.

O'quvchilar sahnada Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Usmon Nosir, Oybek, G'afur G'ulom kabi ulug' ajdodlarimiz hamda millatimiz qahramonlari siymosini gavdalanitirishdi. 9-«B» va 9-«V» sinf o'quvchilari «Farhod va Shirin» asaridan parcha ijro etib, Farhod, Xisrav, Makkora kampir timsollarini talqin etishdi.

Kechaning aziz mehmoni O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev tadbir so'ngida quyidagi fikrlarni aytib o'tdilar:

– Men ushbu uchrashuvdan uch xil taassurot oldim. Birinchisi, bu maktabda kitobxon, she'riyat shaydolari bo'lgan o'quvchilar juda ko'pligini payqadim. Ikkinchisi, o'quvchilar qalbidan Vatanga, ona tilimizga bo'lgan mehr chuqur o'rin olganligini his qildim. Asosiysi, kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanligidan faxrlandim. Hozirdanoq ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ko'rsatib, ulug' orzular bilan ulg'ayayotgan o'g'il-qizlarimiz kelajakda barkamol inson bo'lib

*Yurtim, menga zar kerakmas, zarlaringdan
Kipriklarim o'psalar bas, gardlaringdan.
Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,
Aytib o'tsam deymen, ko'hna dardlaringdan.*



voyaga yetishlariga ishonchim komil.

– Vatanga bo'lgan muhabbatni oilaga, maktabga, mahallaga bo'lgan mehr orqali o'quvchilar diliga, ong-u shuuriga jo etish kerak, – deydi oliy toifali muallima Marg'uba Isomiddinova. – Shundagina farzandlarimizdan Vatan uchun fidoyilar yetishib chiqadi. Qalbida vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'lgan yoshlarni esa hech qanday kuch yenga olmaydi.

Sevimli yozuvchimiz va ustozning o'rinni fikrlarini tadbir ishtirokchilari davom ettirishdi:

*Darhaqiqat, bolajonlar
qalbida ajdodlarga hurmat,
muqaddas zaminimizga mehr-
muhabbat tuyg'usini uyg'otish
uchun mana shunday tadbirlar tez-
tez o'tkazib turilsa, maqsadga
muvofiq bo'lar edi.
Gulyuz BAHODIR qizi*

Aziza ERKINOVA,
6-«B» sinf o'quvchisi:

– To'maris timsolini to'laonli talqin etish maqsadida «To'maris» afsonasini o'qib chiqdim va uning dovyurakligi, aqlli lashkarboshi ekanligi meni hayratga soldi. Bu timsolni ijro eta turib, beixtiyor To'maris davriga qaytgandek bo'ldim...

Nurilla RAHMATULLAYEV,
6-sinf o'quvchisi:

– Men sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning she'rlarini maroq bilan mutolaa qilar edim. Lekin bir kun kelib, sahnaga Erkin Vohidov bo'lib chiqaman, deb o'ylamagandim. Bu rolni ijro etganimda, barchaning olqishiga sazovor bo'ldim.

Zahiriddin XUSHVAQTOV,
6-sinf o'quvchisi:

– Aslida onamlar Bobur Mirzodek bo'lsin deya ismimni Zahiriddin qo'ygan ekanlar. Ustozim menga ulug' bobokalonimiz Bobur obrazini yaratganimdan xursand bo'lib ketdim...

XUSHKAYFIYAT BAG'ISHLADI

*Barcha bilim maskanlari qatori biz ta'lim olayotgan
poytaxtimizdagi 310-umumta'lim maktabida
ham ko'plab tadbirlar o'tkazib turiladi.
Kuni kecha bo'lib o'tgan Alisher Navoiy
ijodiga bag'ishlangan kecha shular
jumlasidandir.*



Ushbu tadbirda 5-«B» sinf o'quvchilari faol ishtirok etishdi. Ular bobokalonimiz Navoiy ijodiga alohida to'xtalib, shoir qalamiga mansub she'r, g'azal, ruboiylarni yoddan ifodalari o'qib berishdi. Ustozlarimiz Dिल्фуza Ro'ziyeva, Feruza Umarova, Latofat Qodirova, Jamila Abdurahmonova, shuningdek, kechamizda mehmon bo'lgan ota-onalar ham bizlarni olqishladilar. Tadbir

so'ngida maktabimiz rahbari Malika Maqsudova so'zga chiqib, bayram tashkilotchilari va ishtirokchilariga minnatdorchilik bildirdilar.

Odina MAHMUDOVA,
5-«B» sinf o'quvchisi

KASHFIYOT

asar yozish uchun ijodkor, avvalo, bugungi hayot bilan birga tarixni, fan yutuqlarini, falsafa qonun-qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim ekan, degan xulosaga keladi. Yuqoridagilardan yuzakiroq xabardor kishi Xushboq Rahim she'rlarining mazmun-mohiyatini anglab yetmasligi mumkin. Shoir yozadi:

*Mustaqil dunyo ham erkin tafakkur,
Tarixni tuyaning juniday titdi.
Quyosh ham tojiga tirmoqdosh Xushboq
Shon-u shuhratiga qasida bitti...*

Surxondaryo.

She'r satrlaridagi yuk, mazmun zalvor badiiy ijod tosh-u tarozisiga qanchalik mos kelish-kelmasligi asosiy masala. Lekin «Surxondaryo» so'zida parchinlab tashlangan ikki jihatni anglab yetish va uni kitobxonga yetkazish muhimdir.

Shoir «Surxondaryo» so'zini hudud va metod ma'nosida yakqalam qilgan. Ulardan har biriga kitobxonning diqqatini qaratamiz.

Surxondaryo – hudud. Bu hudud 20,1 ming km² ga teng. U yurakday yolg'iz Kurrai Zaminda joylashgan, qoyaday mustahkam O'zbekistonning mustarak qismi. Shoir Surxondaryodagi bir vaqtlar neandertal bola yashab o'tgan Teshiktosh g'ori yoki Boysuntog',

Qo'hitangtog', himmat cho'qqisining qiri, jahon tog'larining piri bo'lmish Bobotog' qiyofasiga emas, balki shu 0,1 km² ga teng hududning zarrachasini ham sinchkov tafakkuri qamrovidan qochirmaydi. Uni kitobday o'qiymiz, u bilan dardlashadi, undan dunyolarni aylanguvchi markaz o'qini topadi. Zarra koinot bilan, beli va belbog'i bilan, Surxondaryo bilan bir butunlikni ko'radi.

*Zarrani kitobday o'qidim, bugun
Qadimda dunyo ham o'sha mador, o'q.
Belbog' ham belimda mulki koinot
Tinchlik ham sog'liqdan katta boylik yo'q...*

Surxondaryo.

Surxondaryo insoniyat tamaddunining dastlabki beshiklaridan biri, iqlimi nihoyatda qulay. Yilning to'rt fasli quyoshli. Qish-qirovli kunlar kam. Qadimgi Bag'riya, Kushonlar davlati va uning poytaxti shu hududda joylashganligini arxeologlar aniqlashgan. Eng qadimgi shaharlar o'rni, mahalla, arki a'lo, mudofaa devorlari qabriston, sopol idishlar, sopol siyohdon, omoch, turli taqinchoqlar, davlat muhrlari, jun, paxta, ipak to'qima qoldiqlari, bug'doy doni, g'o'za chigiti, dastlabki metall zavodining o'rni, shisha, pishiq g'isht, zargarlik ashyolari, naqshinkor yog'och siniqlari va boshqa qator tarixiy topilmalar Surxondaryo hududidagi asrlar osha ko'kka ko'krak kerib turgan tepaliklar bag'ridan topilgan. Xushboq Rahim dostonlari orqali kitobxonlarni mazkur topilmalarga kitobdek munosabat bildirishga, ularni

sinchiklab o'qishga, Surxondaryo tarixi va bugunini e'tibor bilan o'rganishga chaqiradi.

*Hunar keksarmaydi, ko'ngil qarimas,
Mehnatning ortidan yutuqlar bari.
Oromiy yozuvi, raqam ham chiziq,
Bor-u bir, bahr-u bar kitob, daftar...*

Surxondaryo.

Shoir «Surxondaryo» so'zini daryo ma'nosida, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlarini, odam va olam munosabatlarining hammabop aloqa va bog'lanishlarini bilish va bildirish, tahlil va tadqiq etuvchi dialektik metod ma'nosida ham ishlatgan. Darhaqiqat, o'tgan vaqt iziga qaytmaydi. Bugungi yutuqning qusuri ertaga ko'rinadi, ijtimoiy hodisalarning qanday yuz berishi mavjud shart-sharoitga, o'ringa, vaqtga bog'liq. Ularni bir xil mezon, tosh-u tarozi bilan o'lchash, bir xil bo'yoq bilan bo'yash, bir qolipga joylashtirish dialektika tabiatiga zid. Shu ma'noda Prezident Islom Karimov «Tafakkur» jumali Bosh muharriri savollariga javobida «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», deb ogohlantirgan.

Toshtemir TURDIYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

(Davomi bor)

BAXTIMIZ POYDEVORI

Har bir mustaqil davlat o'z tiliga, diniga va albatta, Konstitutsiyasiga ega. Yurtimiz Mustaqillikka erishgandan so'ng, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'ldik. U insonlarning huquq va burchlarini belgilab beruvchi asosiy Qonundir. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat.

Konstitutsiya lotincha tuzilish, tartib so'zlaridan olingan bo'lib, belgilayman, tasdiqlayman, degan ma'nolarni bildiradi. Konstitutsiyamizda biz bolalarga ham katta e'tibor qaratiladiki, hatto «Bola huquqlari kafolatlari» to'g'risida Qonun qabul qilingan. Unda biz bolalarning huquq va burchlarimiz to'la kafolatlangan.

Konstitutsiyamizning 45-moddasi-da «Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir», deb yozib qo'yilgan.

Biz o'qiydigan ayrim ertaklarda qahramonlarning huquqlari poymol qilinadi. Bu esa bizga huquq va

burchlarimizni yaxshiroq bilib olishimiz lozimligini uqtiradi. Masalan, «Zumrad va Qimmat» ertagini olaylik. Unda ona bir qiziga yaxshi, ikkinchisiga esa yomon munosabatda bo'ladi. Yaxshi ko'rgan qizi Qimmatga ish qildirmaydi, o'gay qizi Zumradning ko'ngliga ozor beradi. Konstitutsiyamizning 11-bobida fuqarolarning burchlari bayon etilgan. Unda har bir kishi boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, qadr-qimmatini hurmat qilishga majburligi qayd etilgan. Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevoridir.

Abdulaziz JALILOV,
Olmazor tumanidagi
269-maktabning 4-«A»
sinf o'quvchisi



Gulbahor Madaliyeva 2001-yildan buyon Pop tumanidagi 7-maktabda yetakchi bo'lib faoliyat yuritadi. Uning boshchiligida «Kamalak»chilar turli tanlovlarda, seminar-treninglarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'ldan bermayaptilar. «Kamalak bilimdonlari – 2010» ko'rik-tanlovida viloyatda birinchi o'rinni olib, respublika bosqichida ishtirok etishga muvaffaq bo'lishdi.

– Men yetakchi bo'lib ishlayotganimdan faxrlanaman, – deydi tinib-tinchimas Gulbahor. – O'quvchilarning bilimdonligi, zukkoligi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqi-yu zavqini ko'rganimda, o'z kasbinga bo'lgan mehrim yanada ortadi.

O'quvchilar bilan ko'plab tadbirlar tashkil etar ekanmiz, doimo bir gapni takrorlashdan charchamayman: «Yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlardan to'g'ri va unumli foydalaning. Shundagina oldingizga qo'ygan maqsadingizga erishasiz».

Yetakchilik mas'uliyatini his qilib, uni sidqidildan bajarayotgan Gulbahor Madaliyevaning so'zlaridan angladikki, u o'z ishidan mamnun. Kasbini sevgan kishining esa ishida unum bo'ladi.

Alisher ABDULLAJONOV

ZUKKO KITOBXON KIM?

Respublikamizning barcha maktablarida oktabr – ona-tili va adabiyot fani oyligi o'tkazilib kelinmoqda. Respublika musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab- internatda ham mazkur oylik qiziqarli va mazmunli tarzda o'tkazildi.

O'quvchilar Feruza Mamatqulova, Dono Usmonova, Zebo Saydahmedova va Jamoliddin Shermuhammadxon o'g'li kabi o'qituvchilari hamrohligida «Sharq ziyokori» kitob do'konidan qiziqarli kitoblar xarid qildilar.

Shuningdek, oylik doirasida «Zukko kitobxon», «Kitob auksioni» va «Rasmlar tanlovi» tadbirlari tashkillashtirildi.

Oylikda faol ishtirok etgan «Mezon» guruhi a'zolari «Tafakkur» va «Fitrat» guruhi a'zolari orasida o'zlari-ning bilimdonliklari, chaqqon va zukkoliklari bilan ajralib turdilar. G'oliblikni ham «Mezon» guruhi qo'lga kiritdi.

Tadbir yakunida maktab-internatning zukko kitobxoni ham aniqlandi. U 7-«A» sinf o'quvchisi Abdulla To'ychiyev edi.

Madina MIRZAQOBULOVA

DO'STSIZ KISHI BAXTSIZDIR


Maktabimiz o'quvchilari juda ahil-inoqlar. Ularning orasida 6-sinf o'quvchilari Sanobar O'roqboyeva, Aysuluv Sottarbergenova ajralib turishadi. Bu ikki dugona hamma fanlardan «a'lo» baholarga o'qishadi. Aysuluv adabiyotga, Sanobar esa matematika faniga qiziqadi. Ular maktabdagi barcha to'garaklarga qatnaydilar. Qadimda xalqimiz do'stsiz kishini baxtsiz deb hisoblashgan. Bu ikki dugonaga nafaqat maktabdagilarning, balki mahalladagilarning ham havasi keladi. Dugonalarining do'stligi abadiy bo'lsin, deyman.

Aziz bolajonlar! Sizlarning ham maktabingizda Aysuluv va Sanobar singari qalin do'stlar, dugonalar bo'lsa, ular haqida «Tong yulduzi»ga yozib yuboring.



Ayjamol KAROMATDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi
11-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

ESKIRMAYDIGAN TUG'U



– Oting yurtini sog'ingan. Sirdaryoning suvidan ichib, kengliklarida dukurlab yugurmaganicha tuzalmaydi, – debdilar. Bobom otni mashinaga ortib, Sirdaryoga olib ketibdilar. Manzilga yetib borishganda, ot qattiq kishnabdi. Haydovchi mashinaning yuxkonasini tushirgan zahoti u arqonini uzib, yerga sakrabdi, o'zi voyaga yetgan dalalarda shataloq otib yuguribdi va daryodan suv ichibdi. Buni ko'rgan bobom, jonivorlar ham tug'ilgan joyiga talpinar ekan-da, deb otni egasiga qaytaribdilar.

Bu voqeaga ancha yillar bo'ldi. Balki o'sha otning bolalari hali-hanuz Sirdaryodan suv ichib, dalalarida chopqillab yurishgandir. Insonlardagi yurt sog'inchi tuyg'usi jonivorlarga ham xos ekan. Zero, Vatan tuyg'usi hech qachon eskirmaydigan tuyg'udir.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Yunusobod tumanidagi 96-maktabning
5-sinf o'quvchisi

Bobom taniqli veterinar bo'lganlar. Ularning davrida texnika tanqis bo'lganligi bois, ko'proq otda yurarkanlar. Erta tongdan toqqa chiqib, otardagi qo'ylarni ko'rikdan o'tqazib, kechga yaqin uylariga qaytar ekanlar.

Shunday kunlarning birida Sirdaryo viloyatiga qurultoyga boribdilar. Qurultoy tugagach, uning ishtirokchilaridan biri bobomni Sirdaryoning bo'yidagi fermasiga olib ketibdi. Zotdor sigir kasal bo'lib qolgan ekan. Bobom bo'g'oz sigirning zurriyodiga ziyon yetkazmay, jarrohlik amaliyotini bajaribdilar.

Bundan quvongan ferma rahbari bobomga ot sovg'a qilibdi. Oradan oylar o'tibdi. Bir kuni bobom og'ilxonaga kirsalar, ot boshini egib turganmish. U na yem yermish, na suv icharmish...

Bobom ko'p kasbdoshlariga murojaat qilibdilar, lekin otning kasalini topa olmay, ularning ham boshlari qotibdi.

Bir kuni amakimiz:

Yaqinda gazetamizda e'lon qilingan «Bola huquqlari bolalar nigohida» tanloviga har qachongidan ham ko'p maktublar kelyapti. Bu esa o'quvchilarimizda o'z huquq va burchlarini yanada yaxshiroq anglashga, huquqiy savodxonliklarini oshirishga ishtiyoq katta ekanligining dalolatidir.

Gazetamizning eng faol muxbirlaridan bo'lgan opa-singil Kumush va Muyassar Abdurazzoqovalar birinchilardan bo'lib tanlovga o'z ishlaridan namunalar yuborishibdi. Ular tanlovning barcha shartlariga javoban bola huquqlari to'g'risida bilganlarini hamda yangi talqinda ajoyib ertaklar yozib yuborishibdi. Boshqotirmalar tuzib, ertaklar asosida rasmlar chizishibdi. Ammo maqola va ertaklarning hajmi katta bo'lganligi bois, ulardan foydalana olmadik. Vaholanki, tanlovning shartida unga yuborilgan ishlarning hajmi ikki daftar varag'idan oshmasligi ta'kidlangandi. Ular tuzgan boshqotirmalarni esa e'lon qilishni lozim topdik.

Kuni kecha mazkur tanlovga olis Surxon vohasidan ham maktublar keldi. Termiz shahridagi 11-maktab o'quvchilarining ijodiy ishlarini ko'zdan kechirib, ularning g'oliblik sari astoydil intilayotganliklarini his qildik. O'quvchilardan biri bola huquqlariga oid yangi talqinda ertak, yana biri she'riy ertak yozib yuborishibdi.

Quyida bu ziyrak, hozirjavob tengdoshlaringiz yo'llagan ertaklarni e'tiboringizga havola qilyapmiz. Shu o'rinda Sizlardan ham maktublar kutib qolamiz.

ERTAKLAR - YAXSHILIKKA YETAKLAR

Bolajon xalqimiz hamisha farzandi qoshida parvona. Tandirda issiq noni, tilida shirin kalomi, dasturxonida noz-ne'mati mo'l xalqimizning og'zaki ijodi ham o'lmas. Ko'pgina xalq qo'shiqlarida, ertaklarda, maqol va matallarda bolalar huquqlarining poymol bo'lishiga guvoh bo'lamiz. Aslida bu ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, ular ezgulikka yetaklaydi.

Haq-huquqi toptalgan Zumrad ertak oxirida yaxshilar qurshovida baxtga erishadi. Shu tariqa ezgulikning hamisha tantana qilishi uqtiriladi. «Susambil» ertagi orqali o'z fikri, qarashlarini erkin ifodalashni, «Ur to'qmoq»da sog'liq uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday holatdan himoyalaniish lozimligini anglaymiz. «Ko'k sigir»da qiynoqlarga va boshqa shafqatsizlarcha jazoga duchor etilmaslik huquqi haqida so'z boradi. Uyimizda 400 ga yaqin badiiy kitoblari bor. Ular orasida turli xalqlarning ertaklari ham talaygina. Ana shu ertaklarni o'qib, uqqanlarim asosida hayotiy hikoya yordim.

AYBSIZ AYBDOR

Qishlog'imizda Rahim degan bir bola yashardi. Juda aqlli, yuvvosh, xushmuomala bu bolakay doim kimningdir hojatini chiqarib yurardi. Bir kuni uning chap ko'zi osti ko'karganini ko'rib, hayron bo'ldim. Nima bo'lganini so'rasam, qo'l siltab, indamay qo'ya qoldi.

Ertasi kuni Rahimni ichki ishlar xodimlari yo'qlab kelishdi. Uning rahmdilligi o'z boshiga tashvish o'rtirganini keyinroq bildik.

Darsdan qaytayotgan Rahimdan bir notanish kishi mahalladoshining uyini so'rabdi va rahmat aytib o'tib ketibdi. Birozdan so'ng ko'chada o'ynab yurgan Rahim yana haligi odamni uchratibdi. U shoshilganicha kelib, mana buni ushlab tur, deya bir tugunchani qo'lga tutqazibdi-da, yo'lga ravona bo'libdi. Oradan bir muddat o'tib, qo'lida tayoq ko'tarib kelayotgan mahalladoshiga ko'zi tushibdi. U kela solib, Rahimni savalay ketibdi...

Keyin bilsak, haligi odam o'g'ri bo'lib, bu ishiga Rahimni ham sherik qilgan ekan. Shu tariqa Rahim «Aybsiz aybdor»ga aylanibdi. Bu noxush voqea Rahimga saboq bo'ldi. Endi u yaxshi bilan yomonni farqlay oladi.

Sarvinov NE'MATILAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
11-maktabning 9-sinf o'quvchisi

Qadimda Mehribon ismli bir beva ayol bo'lib, uning Baxtiyor degan yakka-yu yagona o'g'li bo'lgan ekan. U juda ko'rkam, lekin sho'x va dangasa bola ekan. Onamga ko'maklashay, mushkulini biroz bo'lsa-da, yengillatay demas ekan. Kun bo'yi qo'shnilarning bog'idan chiqmas, mevalardan o'g'irlab, o'zini xursand qilib yuraverarkan. Hayvonlarga, qushlarga ozor berish, xazonlarni yoqish eng sevimli mashg'uloti ekan...

Kunlardan bir kuni onasi og'ir betob bo'lib qolibdi. Tabib uning dardi og'irligini, juda ko'p dori-darmon kerakligini tushuntiribdi. Baxtiyor noiloj ish qidira boshlabdi. Qo'shni mahalladagi kulo'lga shogird tushib, ishlariga ko'maklashib yuribdi. Keyin xizmat haqini so'rabdi. Kulol esa, aslida men



emas, sen menga pul to'lashing kerak, chunki senga o'z kasbimni o'rgatgandim, deya qo'lga kaltak olib Baxtiyorni haydab solibdi.


Keyin u novvoyga shogird tushibdi. Novvoy ham uni rosa ishlatib, haqini bermabdi. «Sen mening bog'imdan juda ko'p meva o'g'irlagansan. Shuning uchun senga haq to'lamayman», deya

eshikni yuziga yopib qo'yibdi.

Baxtiyor noiloj uyga qaytibdi. Bu orada onasi olamdan o'tgan ekan. Yetim bo'lib qolganidan, nochorligidan qayg'urib, baland tog'ning cho'qqisiga chiqibdi va o'z joniga qasd qilmoqchi bo'libdi. O'sha yerda qo'y-qo'zi boqib yurgan podachi chol uni bu shahshtidan qaytaribdi va o'ziga farzand qilib olibdi. O'g'lim bilimli bo'lsin, deya juda ko'p kitoblari olib beribdi. Ularning orasida bola huquqlariga oid kitob ham bor ekan. Baxtiyor uni o'qib, o'z haq-huquqlarini o'rganib olibdi. Endi uni hech kim nohaq xafa qilolmas ekan.

Bekzod QURBONOV,
shu maktabning
9-«V» sinf o'quvchisi

«HUQUQ» BOSHQOTIRMASI



SAVOLLAR:

1. Huquqning biror tarmog'iga oid qonun-qoidalar to'plami.
2. O'zining fuqarolik huquqini himoya qilish haqida sud orqali qilingan ariznoma.
3. Yig'ilish yoki majlisda shu majlis qarorlarini qonuniy deb topish uchun unda qatnashishi shart bo'lgan ishtirokchilar soni.
4. Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, mil. avvalgi VII - VI asrlarda O'zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari qadimgi... Qadimgi Baqtriya paydo bo'lgan.
5. Mol - ...
6. Davlat 2 turga ajratiladi: a) ... b) huquqiy davlat.

7. Davlat boshlig'i, markaziy va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarda birgalikda nomzod ko'rsatish to'g'risida bir necha siyosiy partiyalar bitimi.
8. Siyosiy va huquqiy - axloqiy ta'limoti. Zardushtiylik davrida yaratilgan asar.
9. Jamiyatning asosiy bo'g'ini.
10. Aybdordan davlat daromadiga qonunda belgilangan miqdorda pul undirish.
11. Davlatdagi oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organining nomlanishi.
12. Davlat boshlig'i.

Muyassar ABDURAZZOQOVA,
Bekobod tumanidagi 46-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi




SHAFFOF, ZILOL BULOĞ'IM

Yashna, jonajon bog'im,
Viqorli suyanch tog'im.
Daraxtlari mevali,
Mevasi bol, shirali.

Gulga boy, ko'rkam shahar,
Chiroyi dilga yoqar.
Bu yer mening Toshkentim,
Ona shahrim – Boshkentim.

Seni jondan sevaman,
Poyimda turgan chaman.
Shaffof, zilol bulog'im,
Qongay mudom chanqog'im.

Abdulla ERGASHEV



SHAMOL SHOSHDI

Shamol shoshdi,
Bulutlar toshdi.
Sim-sim yog'di ko'klam tuyg'usi.
Ming asrki, mudragan toshning
Ming ko'zidan qochdi uyqusi.

Namxush havo yoyildi asta,
To'rg'ay ko'ngli ketdi qabarib.
Naychalarga aylanib hislar
Ko'z yosh to'kdi bag'rini yorib.

Rangin durra tang'idi osmon,
So'ng tovlandi ko'kda kamalak.
Gul bargidek harir, parishon
Behol uchar-qo'nar kapalak.

Dilrabo NORQULOVA



ONA YURT!

Zulmatning qa'ridan suzib bir yog'du
Hech bir yuraklarda qolmadi qayg'u,
Xalqimning qalbida iliq bir tuyg'u,
Istiqloling boqiy bo'lsin, ona yurt!

Endi huquqimni toptamas hech kim,
Har ishga qodirman, jo'shadi kuchim,
Yurt sha'nin asramoq muqaddas burchim,
Istiqloling boqiy bo'lsin, ona yurt!

Hurlik har bir qalbni nurafshon etdi,
O'zbekning dovrug'i dunyoga ketdi,
Mustaqil diyorum kamolga yetdi,
Istiqloling boqiy bo'lsin, ona yurt!

Maftuna QURBONOVA,
Toshkent shahri, Chilonzor
tumanidagi 184-maktabning
9-sinf o'quvchisi

TERMIZIM

Ona shahrim, diyorum,
Aziz tuproq, makonim.
Onamdek nurli yuzim,
O'zingdirsan, Termizim!

Yurtinga ko'rk, marjona,
Yigitlaring mardona.
Men uchun sen yagona,
Jonajonim, Termizim!

Tarixingdan so'z ochsam,
Ado bo'lmaydi so'zim.
Buyuklarga makonsan,
Ko'hna shahrim, Termizim!
Komila SHOYIMOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz
shahridagi 3-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi

YIGIT YOSHING MUBORAK, VATAN!

Ona yurtim, ko'rkam koshona,
Yoshingga yosh qo'shildi yana.
Ezguliklar qilar tantana,
Yigit yoshing muborak, Vatan!

Istiqloling qutlamoq uchun,
Sozim baland yangrasin bugun.
Mudom bor bo'l gullab, yashnagin,
Yigit yoshing muborak, Vatan!

Obod elning erka qiziman,
Hur osmonning bir yulduziman.
Gulchehrasi, gulning o'ziman,
Yigit yoshing muborak, Vatan!

Gulchehra RAYIMQULOVA,
Samarqand viloyati,
Nurobod tumani



YANGI AVLOD

Umr oqar daryodek
O'tib ketaverarkan.
Bolalik ham shamoldek
Uchib ketaverarkan.

Kecha men go'dak edim,
Qalbm to'la shodligim.
Bugun kaftdek namoyon,
Barkamol avlodligim.

G'ayrat qilib o'qiyman,
Istiqloldan dilim shod.
Porloq kelajak sari
Intilar yangi avlod.

Laylo XUSHVAQTOVA,
Toshkent shahridagi
322-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

2. Peppi kuchini ko'rsatdi

Ertasiga Annika juda erta uyg'ondi,
irg'ib o'rmdan turdi-yu, akasini turti.
– Ko'zingni och, Tommi, – dedi
u shivirlab, – tur o'rmingdan, kechagi
alomat qizni ko'rgani boramiz.

Tommi apil-tapil kiyindi. Aka-singil
yuvini taranib, yengilgina nonushta
qilishdi. Keyin ko'chaga qarab
chopishdi.

yopib bo'lasan?

– He, menga yuzta, ikki yuzta non
yopish cho't emas! – deb maqtandi Peppi.
– Sizlar anavi sandiqning ustida o'tirib
turinglar, mening hunarimni ko'rasizlar.

Chindan ham Peppining qo'llari xuddi
mashinadek ishlardi. U shap etkazib bir
bo'lak xamirni yulib oladi-da, yerga
tashlaydi. O'qlog'i bilan nari-beri surib,
xamirni ezadi. Keyin yapaloq xamirni
yonginasidagi temir patnisga otadi.
Patnisi pechkaga tiqib, tag'in zuvaladan
non yasashga kirishadi.

PEPPI UZUNPAYPOQ

Astrid LINDGREN,
shved yozuvchisi

– Hoy bolalar, tong sahardan
qayoqqa shoshyapsizlar? – deb so'radi
oyilari.

– Yangi ko'chib kelgan qizni
ko'rgani ketyapmiz! – dedi Annika.

– Xavotir olmang, oyi, kun bo'yi
o'sha yoqda bo'lamiz, – dedi Tommi.
Ular kirganda, Peppi non yopmoq-
chi bo'layotgan edi. Oldida bir tog'ora
xamir. Peppi xamirdan mushtday uzib
oldi-yu, shundoqqina polga yoyib,
zuvala yasadi. Nelson ham unga qiziqib
zuvala qilmoqchi bo'ldi.

– Janob Nelson, – dedi Peppi
unga, – xamirga tegma. Qo'lingdan
kelmaydigan ishga urinma, deb necha
marta aytdim senga.

Nelson baribir bir changal xamirni
olib qochdi.

Bolalar Peppining chaqqonlik bilan
zuvala yasashini ko'rib, undan
so'rashdi:

– Nima qilyapsan, Peppi?

– Mo'rkon tozalayapman, desam,
baribir ishonmaysizlar. Mana shu
xamirdan issiq-issiq non yopmoq-
chiman.

– Xamiring ko'p-u, uni qachon



E, qo'ying-chi, yarim soatga qolmay
Peppi bir tog'ora xamirni tinchitdi. Uning
abjirliligiga, kuchiga Tommi bilan Annika
qoyil qolishdi.

– Tamom, vassalom! – dedi kaftlarini
qoqib Peppi, – endi non deganing o'zi
pishib yotaveradi. Ungacha biz bir sayr
qilib kelamiz.

– Noning kuyib ketmaydimi?

– Kuymaydi. Mening pechkam aqlli.

Non pishganda «dir-dir» etib, o'zi o'chib
qoladi. Qani, ketdikmi, bolalar?

Annika bilan Tommi sandiqdan
turishdi.

– Qayoqqa boramiz? – dedi Tommi.

– Bog'larni aylanamiz. Bilasizlarmi,
daraxtlarning kavagida, o't-o'lanlar
orasida turli buyumlar yotgan bo'ladi.
Ularni agar egasi chiqsa, egasiga
qaytaramiz, bo'lmasa, o'zimizniki qilib
olamiz. Ketdik!

Uchchovlon chopqillab hovliga
chiqdilar. Ularning ortidan maymuncha
Nelson irg'ishlab borardi.

Peppi shumgina qizaloq edi. U yangi
o'rtoqlarini xursand qilish uchun bir talay
o'yinchoqlarini bog'ning har yeriga
yashirib qo'ygan edi. U qo'lini peshonasiga
qo'yib, daraxt shoxlariga razm soldi,
uzunchoq tufli bilan maysalarni titkiladi.

Keyin kattakon bir daraxt kavagiga qo'l
soldi-yu, chiroyli marjon oldi.

– Buni qaranglar, omadingiz bor
ekan! – dedi Peppi kulib. – Xuddi men
Afrikadan olib kelgan marjonga o'xshar
ekan. Ma, Annika, buni senga sovg'a
qilaman.

(Davomi bor)

Sa'dulla SIYOYEV tarjimasi

Aziz futbolsevar bolajonlar! Kecha Ispaniyaning «Real» Madrid futbol jamoasi delegatsiyasi yurtimizda bo'lib o'tgan Art Week Stule. uz – 2011 san'at haftaligi tadbirida ishtirok etdi. Bundan maqsad, Fond Forumning sport sohasidagi loyihalari doirasida O'zbekistonda bolalar futbolini yanada rivojlantirish va hamkorlikni tashkillashtirish edi.

TOSHKENTDA «REAL» AKADEMIYASI

Biz O'zbekistonga tashrif buyurgan «Real» Madrid jamg'armasi raisi Karlos Eskuderodan o'zimizni qiziqirgan savollarga javob olishga erishdik.

– **Karlos janoblari, avvalo, O'zbekistonga xush kelibsiz!**

– Bizni dastlabki uchrashuvimiz O'zbekiston futbol federatsiyasi prezidenti Mirabror Usmonov huzuridan boshlandi. Keyin esa OAV vakillari bilan matbuot anjumanimiz davom etdi.

– **Toshkentga tashrifingiz boisi nimada?**

– Maqsadimiz, Toshkentda «Real» Madrid klubining akademiyasini tashkil etish. Akademiyada barcha futbolga qiziquvchi bolalar o'z mahoratlarini oshirishlari mumkin. Tahsilni tugatgan bolalar o'z ish joylarini topib ketishlari aniq. Bo'lajak futbolchilar akademiyada o'qish orqali tartib-intizom, odob-axloq qoida-

larini ham o'zlashtiradilar.

– **Ayting-chi, Ispaniyaning mashhur «Real» Madrid klubi necha yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda?**

– Klubimiz tarixi juda boy va mazmunli. 100 yildirki, «XX asrning eng yaxshi klubi» deb tan olingan. Biz amalga oshirgan ishlarni yana qaysidir klub amalga oshirsa, u ham bizdek 100 yildan keyin asrning eng yaxshi klubiga aylanishi mumkin...

– **Bugungi kunda klubingiz akademiyalari soni jahon bo'yicha nechtani tashkil etmoqda?**

– Shu kungacha 167 ta akademiyamiz ochilgan bo'lib, ular 55 davlatda o'z faoliyatini davom ettirmoqda. – **Biz ham quvonchimizga sherikmiz. Chunki hali Markaziy Osiyoda «Real» Madridning akademiyasi ochilmagandi.**

To'g'ri, biz Osiyoning Fa-

lastin, Saudiya Arabistoni, BAA, Eron, Iordaniya, Xitoy mamlakatlarida akademiyalarimizni ochganmiz. O'zbekistonga kelishimizdan maqsad, bundan 600 yil avval bir ispaniyalik elchi Yevropadan Samarqandga kelgan. U Amir Temur bilan uchrashgan. Shu shaharda 2 yil yashab, Sohibqironning hurmatiga sazovor bo'lgan ekan. O'shanda Amir Temur ispaniyalik elchi nomini ulug'lab, Samarqandning bir go'shasini uning nomi bilan atashga farmon berganligini o'rgandik. Demak, biz qadimdan mehr-oqibatni ulug'lovchi xalq ekanligimiz ma'lum.

– **Mazkur akademiyaga mutaxassis va murabbiylar Ispaniyadan taklif etiladimi?**

– Nazarimda, ha, futbol sirlarini o'rgatadigan murabbiylar Ispaniyadan keladi. Tajriba almashish borasida Ispaniyaga ham murabbiylar jo'natiladi.

– **Bizning yurtimizda o'rta ta'lim bepul. «Real» Madrid akademiyasida o'qish pulli bo'ladimi?**

– Bu masala hali jiddiy o'rganiladi. Bu asosan homiyga bog'liq. Masalan, Amerika qit'asida akademiyalarimizni davlat moliyalashtiradi. U yerdagi akademiyalarda asosan kam ta'minlangan oilalarning farzandlari tahsil oladi.

– **Akademiyaga nechta bola qabul qilinadi va ularning yoshi haqida, eng qiziqarlisi, akademiyaning boshqa filiallari bilan o'zaro o'yinlar tashkil etiladimi, ana shular haqida ham bilgimiz keldi...**

– Hozircha akademiyamizga 100 nafar bolani qabul



«Real» klubi bosh murabbiyi Joze Mourino berib yuborgan maxsus to'pni O'FF prezidenti Mirabror Usmonov qabul qilib oldi.

qilsak kerak, deya taxmin qilmoqdamiz. O'quv dargohga qabul qilish esa 8 yoshdan 16 yoshgacha bo'ladi. Musobaqalarga kelsak, Osiyoning boshqa davlatlaridagi akademiyalari bilan o'rtoqlik uchrashuvlari bir yilda bir marta tashkillashtirilib turiladi.

– **Mazmunli suhbattingiz uchun tashakkur!**

G'OLIBA suhbatlashdi

ABDULLA YANA G'OLIB!

O'n ming tomoshabinga mo'ljallangan «Surxon» sport majmuasi bu yil ko'plab musobaqalarga mezbonlik qildi. Majmuada «Barkamol avlod» sport musobaqalari, undan so'ng respublika VI ayollar sport festivali, kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan X xalqaro turnir va kattalar o'rtasidagi VIII jahon chempionati bo'lib o'tdi.

Termiz shahrida ikki kun davom etgan jahon chempionatida 50 ga yaqin mamlakatdan 400 nafar kuchli polvonlar gilamga chiqdilar. Ular safida Abdulla Tangriyev, Sherali To'rayev, Shuhratjon Arslonov va Gulmira Ismatova kabi yurtdoshlarimiz ham bellashdilar. Shuningdek, eronlik, yaponiyalik, isroillik, koreyalik, mongoliyalik va afrikalik polvonlar bellashuvi chempionatning eng qiziqarli daqiqalariga aylandi. Quvonchimizga quvonch qo'shgan dongdor polvonimiz Abdulla Tangriyev yana bir bor shohsupaning eng yuqori pog'onasini egallab, yurt sharafiga ko'klarga ko'tardi.

OMADLI OLTINCHI TUR

Anton Filippov va Rustam Qosimjonov yurtimizning kuchli shaxmatchilari sanaladi. Kuni kecha poytaxtimizda bo'lib o'tgan I Markaziy Osiyo kubogi musobaqasining navbatdagi turida ikki grossmeysterlarimiz bir-biriga qarshi dona surib, musobaqaning g'oyat hayajonli onlarini muxlislariga tuhfa etdilar.

Musobaqada olti mamlakatdan kelgan shaxmat ustalari ishtirok etishdi.

Anton Filippov to'rt partiyada qora donalarida o'ynashiga qaramay, Qosimjonov bilan tengma-teng durang natijani qo'lga kiritdi. Beshinchi turda dastlabki ikki pog'onani egallab turgan yetakchi grossmeysterlarimizga oltinchi tur omadli bo'ldi. Oltinchi turda esa o'z imkoniyatidan unumli foydalangan Rustam Qosimjonov iste'dodli yosh shaxmatchilarimizdan Jahongir Vohidovni mag'lubiyatga uchratib, ochkolar sonini beshtaga yetkazdi. Anton Filippov qozog'istonlik tajribali Pavel Kosur bilan durang o'ynab, besh ochko to'pladi. Ikki grossmeysterlarimiz ham shu kungacha bosh sovrin uchun kurashni davom ettirdilar. Anton Filippov ham Qosimjonovdek tajribaga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Baribir bosh sovringa Rustam akangiz egalik qildi.

Darvoqe, xalqaro turnirda eng yaxshi natijaga erishgan O'zbekiston terma jamoasiga Markaziy Osiyo kubogi ham topshirildi.

Xurshida YODGOROVA



ODOB BURCHAGI

1. Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin.
2. Keng qalbli bo'ling, shunda boshqalar ham sizga nisbatan shunday bo'lishadi.
3. Ahmoqdan uzoqlashing.
4. Yaxshilikni chehrasi ochiq, xushro'y odamlardan kuting.
6. Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi.
7. Yolg'onchilik eng yomon odat. Yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi.
8. So'zda sehr bor, she'rda esa hikmat.

NARGIZA tayyorladi



Qadim-qadim deganda, beixtiyor tarix silsilalari orqali vohamiz Surxon diyoringning Baqtriya, Kushon, Tohariston, Chag'oniyon nomida atalishi yodimizdan o'tadi. Ana shu davrlarda ham qo'shiq el dardiga hamroh bo'lgan.

Ha, bu 4 ming yillar muqaddam tashkil topgan Baqtriya davlati tuprog'i-dir. Uning xalqi goh chorvachilik, goh dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. «Mayda», «Xirmon qo'shig'i», «Yozi» va boshqa bir qancha og'zaki ijodi namunalari yaratgan zukko xalqdir.

YOZI:

Qoshingni qoraligi nildanmidi? Beling ingichkaligi qildanmidi? Cho'l yerdak kiyik suti emgan Zebom, Tilingni burroligi shundanmidi?



BEG'UBOR OSMON

Bulutlar Quyosh bobo yuzini to'sibdi. Borliqni qorong'ulik qoplabdi. Shamol turib, bulutlar ortidan Quyosh mo'ralabdi. Shunda u jilmayibgina: «Inson odobi bilan, osmon oftobi bilan aziz», debdi. Osmon yanada nurafshon bo'lib ketibdi.

QALAM SEHRI

Oq varaq qora qalamga debdi:

– Buncha hunuk va qorasan.

Qalam bo'lsa kamtargina:

– O'zim qora bo'lsam ham qilar ishim oq.

Haqiqiy go'zallik yarataman. Mana, chiziqlaringa boq, – debdi oq varaqning yuziga chizib.

Dilnavoz NAJIMOVA,

Chirchiq shahridagi 26-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi

ZEBO:

Chumchuqlar sayrab qo'nar tol boshiga, Yoziyon qalpoq tilar kal boshiga. Qalpog'in mendan tilab ololmasa, Sug'orsin u otining ko'z yoshiga.

YOZI:

Taxta ko'prik ustida taxtim mening, Chamanday ochilmadi baxtim mening. Taxta ko'prik ustida piyolaman, Yorga salom bergani uyalaman.

dostonida qayd etilgan ba'zi voqealar Boysun etaklarida ro'y bergandek tuyuladi. Bu viloyatda Oqtosh qishlog'i, Oydinko'l, Tavkaning qo'rg'oni degan joylar borki, yerli xalq dostonidagi voqealar xuddi shu joylarda bo'lgan deyishadi. Uning ba'zi baxshilari va ba'zi cho'ponlari qo'lga soz olib, hamon bu dostonni jo'shib aytib yurishadi. «Alpomish» dostonini birinchi bor aytgan bobo shoirilari bilan faxrlanishadi.

Ma'lumki, Bobo shoir XIX asrning

SURXON BAXSHICHILIGI
MAKTABI

Bir salom, ikki salom qarindoshga, Tokayin salom beray qalamqoshga. Otingangdan aylanay, oyday Zebom, Begonani qo'y nari, o'zing boshqa.

ZEBO:

Yorginam, qayga qaraysan tayrilib, Mendayin sevar yoringdan ayrilib. Yoziyon, agar Zebodan ayrilsang, Otingning oyog'i sinsin qayrilib.

Folklor namunalari hisoblangan doston, ertak, terma qo'shiqlarda tasvirlangan voqealar, joylar bundan qancha vaqt avval yuz berganligidan qat'i nazar, juda tanish tuyuladi kishiga va ba'zan tevarak atrofingizdagi joylar ba'zi asarlarda qayd etilganligini ko'rib, faxrlanasiz ham. Masalan, «Alpomish»

ikkinchi yarmida yashab ijod etgan. Sherobod dostonchiligi maktabi uning nomi bilan bevosita bog'liq.

Bobo shoirming shogirdlari Sherna baxshi, Murod baxshi, Farmon baxshi, Elmurod baxshi, Chori baxshi, Eshqobil baxshi, Qodir baxshi, Ergash baxshi, Mamatrahim baxshilar (ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin) hamon davralarda guldiratib doston aytib kelmoqdalar.

Dilorom RUSTAMOVA, Termiz Davlat universiteti filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

(Davomi bor)

XANDILAR



Olti yoshli Dilshod 1-sinfga borganiga endigina ikki hafta bo'lgan edi. Bir kuni maktabdan qaytayotgan o'g'lining qo'lida papkasi yo'qligini ko'rgan otasi hayron bo'lib so'radi:

– Papkang qani?

– Ko'tarib yurishdan charchadim, har kuni maktabga oboraman, qaytarib obkelaman, undan ko'ra o'zimni, yo'g'e, papkamni urintirmay, deb sinfga tashlab keldim.



Xolasi besh yoshli Nozimaxonni bog' sayliga olib bordi. Qizaloq tengdoshlari bilan bir zumda chiqishib ketdi. Biroq, bu uzoqqa cho'zilmadi.

– Suv sepsang sepa, «krasovka» ukamniki, – dedi Nozimaxonning oyoq kiyimiga suv sepayotgan Jahongir tomonga oyoqlarini cho'zib.

– Unda shimgingga sepanam, – bo'sh kelmadi bolakay va ariqchadan idishga suv olib sepa boshladi.

– Sepaver, shimim akamniki, – dedi xursand bo'lib qizaloq.

– Unda-a-a, – o'ylanib qoldi va ko'ylagiga suv sepa boshladi.

– Bemalol sepa, ko'ylagim ham o'zimniki emas, opamniki, – deya g'olibona javob berdi Nozima...

Feruza SOYIBJON qizi



Muassislar:

O'zbekiston Mathuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lg'in HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
Feruza MATYOQUBOV
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliy:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel/faks:

(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 32242
Buyurtma N: J 3034